

**TOG‘AY MUROD ASARLARIDA SHEVAGA XOS SO‘ZLAR ISHLATILISHI
VA MA‘NOSI („YULDUZLAR MANGU YONADI“ ASARI TAHLILIDA.)****Mengliyeva Yulduz Qaxramon qizi***SamDCHTI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi**24.10-guruh talabasi**mengliyevayulduz30@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida xalq tili va shevaga xos so‘zlarning qo‘llanishi tahlil etilgan. Asarda uchraydigan yag‘rini, ulpi tomirlar, undaychikin, bakovul, noxiya, moyak kabi so‘zlarning ma‘no qatlamlari, ularning badiiy-estetik vazifasi hamda xalqona ruh yaratishdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada yozuvchi sheva unsurlaridan foydalanish orqali qahramonlarning nutqini tabiiy, jonli va milliy ruhda tasvirlagani tahlil qilinadi. Shuningdek, bunday leksik birliklarning adabiy til boyishiga qo‘shgan hissasi ham yoritilgan. Maqolada Tog‘ay Murod asarlarida xalq so‘zlarining qo‘llanilishi milliy tilning go‘zalligi va xalq ruhiyatining ifodasi sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: *Tog‘ay Murod, toboq, olish, halol, chil berish, samovar, jelak, davra, polvon, oshna, to‘n, bova, jayronxona.*

Kirish

Til – xalqning madaniyati, tarixiy taraqqiyoti va milliy o‘zligini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Har bir xalqning tili faqatgina adabiy til doirasida emas, balki shevalar va lahjalar orqali ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Shevalar — bu xalqning kundalik hayotida, urf-odatlarida, marosim va ijtimoiy munosabatlarida shakllangan jonli til qatlamidir. Shevaga xos so‘zlar ko‘pincha ma‘lum hududga tegishli bo‘lib, ularning ma‘nosi, shakli va qo‘llanishi umumadabiy tildan farq qiladi. Ayniqsa, xalq urf-odatlari, milliy sport turlari, to‘y va marosimlarga oid atamalar orqali tilning boyligi, tarixiy ildizlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tog‘ay Murod asarlari o‘zbek xalqining haqiqiy o‘zligini ko‘rsatuvchi asarlar hisoblanishi bejiz emas. Sababi, yozuvchining har bir asari o‘zbek xalqining o‘zligini, madaniyati va ruhiyatini chuqur aks ettiribgina qolmay, tilini barcha unsurlari bilan — leksik boyligi, fonetik xususiyatlari, sintaktik tuzilishi va uslubiy rang-barangligi bilan birgalikda o‘zligicha tasvirlab beradi. Uning asarlarida o‘zbek xalqining shevalari ochiq-oydin ifodalanadi. Barchamizga ma‘lumki qarluq, qipchoq, o‘g‘uz shevalari mavjuddir. Asosan „Yulduzlar mangu yonadi“ asari qipchoq shevasida yozilgan. Qipchoq shevasi

respublikamizning janubiy vohalar Qashqadaryo Surxondaryo vohalarida uchraydi. Asar ushbu hududlardagi voqealar ya'ni kurash jarayonlarini o'z ichiga oladi.. Bu esa asar mazmunini yanada ta'sirchan qiladi, xalqning turmush tarzini real manzarada ko'rsatishga yordam beradi. Masalan, surxon vohasining Denov, Sariosiyo, Sho'rchi kabi hududlardagi shevasida qo'llanadigan ko'plab so'zlar o'ziga xos semantik rang-baranglikka ega. Quyida asarda uchragan ayrim shevaga xos so'zlar ularning ma'nosi va qo'llanishi bilan birgalikda tahlil qilindi:

Olish – “kurash” ma'nosida ishlatiladi. “Bo'ri polvon: vodiyliliklar olishni kurash deydi. Vodiyliliklarda o'z kurashlarini namoyish qildi. Ikki polvon bir-birini belidan qo'lini o'tkazib ushlab, suyashib yura boshladi.”

Toboq – g'oliblarga beriladigan sovrin. “Mana, ho'kiz toboq! Buni kim ko'tarsa, unga bir ho'kiz, bir juft kalish, bir to'n, o'n so'm pul qo'yildi.”

Bova – “bobo” ma'nosida. “Polvon bova chiniminan yiqitdi-ku.”

Kalish – oyoq kiyim turi. “Sovuq kunlarda qishloqda mahsi kalish kiyishadi. Eski rais kalishlari yirtiq, teshik bo'ldi.”

To'n – erkaklarga to'y va bayramlarda yopiladigan milliy kiyim. “Ular bir-biriga to'n yopishgan qiyomatlik do'stlar bo'ldi.”

Chil berish – “yiqitish” ma'nosida kurash usuli. “Qaytadan olishganlarida qo'l chilga oldi.”

Po'stak – qo'y yoki echki terisidan qilingan ko'rpaga o'xshash narsa. “Po'stakni qayoqqa otib yuborsa teskarisi bilan borib tushadi.”

Jayranxona – tentakxona, aqli zaiflar yashaydigan joy. “Ko'plar kuldi, jayranxonadan qochib kelganmi?”

Jelak – yoshi katta kishilar yoki polvonlar kiyadigan kiyim. “U jelakning yengini shimarib tushib kela boshladi.”

Polvon – mard, jasur, qo'rqmas inson. “Biz polvonlik maktabida o'qimadik, polvonlik bizga otameros.”

Davra – kurash maydoni, tomoshabinlar aylana shaklida joylashadi. “Bo'ri polvondan keyin davralardan ketdi.”

Noxiya – viloyat hududidagi ma'lum tuman markazi. “Davraga Denov noxiyasi kattalari keldi.”

Bakovul – davrada tartibni saqlovchi kishi. “Nasim polvon bakovul ro'parasida o'tirdi.”

Mirob – suv taqsimlovchi. “Mirob otiga qamchi bosdi.”

Undaychikin – “unday emas” ma'nosida. “Undaychikin raisni yerparchin qilaman.”

Stolba – simyog'och. “Raisni idora oldidagi stolbaga tang'ib bog'ladi.”

Xayla, xayla – “mana, mana” degan ma’noda. “Xayla, xayla dedi, barmog‘i bilan nuqib, nuqib.”

Ulim – “o‘g‘lim” ma’nosida. “Endi sen mening ulim bo‘lding.”

Ulog‘ – echkining bolasi. “Ulog‘i emib qo‘ymasi uchun yeliniga dokaxalta kiydiradi.”

Xuvv – “xa” degan ma’noda. “Bo‘ri onasidek ovoz berdi: – Xuvv!”

Ulpi-tomirlar, xamson-qo‘llar – “qarindosh-urug‘lar” ma’nosida. “O‘tovda ulpi-tomirlar, xamson-qo‘llar jam bo‘ldi.”

Yag‘ri – yelka qismi; kurashda yag‘ri yerga tekkanda halol hisoblanadi. “Tilovberdi polvon ikki yag‘rini bilan gupillab tushdi.”

Mazkur shevaga xos so‘zlar xalqning kurashga, marosimlarga, kundalik hayotga va o‘zaro munosabatlarga bo‘lgan qarashlarini, madaniyatini aks ettiradi. Bunday leksik birliklar tilning boy qatlamini tashkil etib, ularning ilmiy jihatdan o‘rganilishi milliy tilning tarixiy va madaniy xususiyatlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, badiiy asarlarda uchraydigan dialektizmlar faqatgina leksik birlik sifatida emas, balki til va madaniyat uyg‘unligini namoyon etuvchi muhim vosita sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa

Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida xalq tili unsurlaridan mahorat bilan foydalanilgan. Yozuvchi badiiy ifodani kuchaytirish, obrazlarni jonlantirish va milliy ruhni berish maqsadida xalq so‘zlariga murojaat qilgan. Bu usul asarning mazmunini chuqurlashtirgan, o‘quvchida milliy qadriyatlar va hayotiylik tuyg‘usini uyg‘otgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Murod Tog‘ay. Ot kishnagan oqshom. Qissa. – Toshkent: Ziyo nashr, 1994 –
3. B. Mengliyev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Tafakkur bo‘stoni. 2018